



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

RUHIY HOLATLARNI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TARMOQLANISHI (WORDNET VA O‘ZBEK WORDNET MISOLIDA)

Guljahon Rahmatullayeva,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoqlanishi ingliz tilidagi WordNet va o‘zbek tiliga moslashtirilgan O‘zbek WordNet tizimlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional mazmunga ega birliklarning sinsetlardagi taqsimoti, ular o‘rtasidagi semantik aloqalar, frazeologik ifodalarning tarmoqqa integratsiyasi hamda semantik tizimning struktural tuzilmasi o‘rganiladi. Natijalar ingliz tilidagi WordNet modeli chuqur semantik bog‘lanishlar va keng qamrovli leksik birliklar bilan boyitilganligini, O‘zbek WordNet esa ushbu yo‘nalishda rivojlanish bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni semantik tarmoqqa kiritish zarurati asoslanadi va tizimni takomillashtirishga oid amaliy-tadqiqiy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *WordNet, O‘zbek WordNet, ruhiy holat, leksik birlik, semantik tarmoqlanish, frazeologik birliklar, sinset, semantik aloqa, aksiologik semantika.*

Abstract. This article presents a comparative analysis of the semantic structuring of lexical units that express emotional states, based on English WordNet and its Uzbek counterpart, Uzbek WordNet. The study explores the distribution of emotionally charged lexical units within synsets, their semantic relationships, the integration of phraseological expressions into the network, and the structural features of semantic representation. The results show that the English WordNet model is characterized by a well-developed hierarchy and a rich lexical database, whereas Uzbek WordNet remains under development in this area. The article highlights the necessity of incorporating Uzbek phraseological units into the semantic network and offers practical and theoretical recommendations for enhancing the system.

Keywords: *WordNet, Uzbek WordNet, emotional state, lexical unit, semantic network, phraseological units, synset, semantic relation, axiological semantics.*

Kirish. Til inson tafakkuri va tuyg‘ularining oynasidir. Ayniqsa, ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklar tahlili insonning ichki kechinmalari, hissiy reaksiyalari va madaniy ongining til orqali qanday ifoda topishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu leksik birliklar tili, madaniyati va tafakkuri turlicha bo‘lgan jamoalar uchun ham umumiy, ham farqli xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni semantik tarmoqlanish orqali chuqur o‘rganish mumkin.

So‘zlarning ruhiy holatlarni ifodalashdagi semantik salohiyati morfologik, sintaktik va kontekstual darajalarda namoyon bo‘ladi. Shutova va Mudrynych (2022) zamonaviy ingliz tilida “state semantics”ga oid birliklarning morfologik va semantik xususiyatlarini tahlil qilib, ushbu birliklar qanday ruhiy holatlarni anglatuvchi tushunchalarga asoslanishini ko‘rsatgan. Tilshunoslar mental leksikonni grafli tuzilmalar orqali tahlil qilish orqali leksik birliklarning ruhiy holatlarga oid guruhlar bo‘yicha qanday bog‘lanishini aniqlamoqdalar (Agustín-Llach & Rubio, 2024; Kovács et al., 2021).

Ruhiy holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar esa aksariyat hollarda ko‘p so‘zli tuzilmalar bo‘lib, ular tildagi metaforik va madaniy semantika bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, Fokina (2025) bosh, aql va ong bilan bog‘liq inglizcha frazeologizmlarni aksiologik jihatdan o‘rganib, ular orqali ruhiy holatlar qanday ijobiy yoki salbiy baholanayotganini ochib bergan. Xuddi shuningdek, Muxaybinovna (2020) o‘zbek va tojik tillaridagi ruhiy holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik maydonini tahlil qilib, bu soha til va madaniyat uyg‘unligida shakllanishini ta’kidlaydi.

Bunday leksik birliklarning tarmoq shaklidagi tasnifi uchun zamonaviy kompyuter lingvistikasi yondashuvlari, xususan WordNet va unga asoslangan O‘zbek WordNet kabi leksik-semantic tarmoqlar nihoyatda foydalidir. WordNet’dagi semantik bog‘lanishlar (hypernymy, meronymy,

antonymy, holonymy) har bir leksik birlikni tushunchaviy tarmoq ichida joylashtirish imkonini beradi (Pease & Fellbaum, 2010). Bu tizimda asosiy element sifatida sinsetlar emas, balki leksik birliklar o‘rganilishi taklif etilmoqda (Piasecki et al., 2008), ayniqsa, ko‘p so‘zli emotsional ifodalarni aniqlashda bu muhimdir (Maziarz et al., 2022).

Mental leksikon va semantik o‘zgarishlar bilan bog‘liq tadqiqotlar, masalan, Belov (2020) va Baxtiyarov (2021) tomonidan ko‘rsatilganidek, leksik birliklar vaqt o‘tishi bilan semantik o‘zgarishga uchraydi, bu esa ruhiy holatlarni ifodalovchi birliklar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, bu sohadagi kross-lingvistik tadqiqotlar (Dmitrieva, 2015) turli tillarda ruhiy holatni ifodalashda qanday umumiyliklar va farqlar borligini ko‘rsatadi.

Shu sababli, ushbu maqolada WordNet va O‘zbek WordNet misolida ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoqlanishi tahlil qilinadi. Maqsad – bu birliklarning qanday semantik aloqalar orqali guruhlariga ajralishini, frazeologik va emotsional ifodalar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdir. Bundan tashqari, mavjud tarmoqlar asosida ushbu birliklarning emotsional yuklamasini (sentiment) aniqlash imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi (Zaško-Zielińska et al., 2015).

Adabiyotlar sharhi (Nazariy asos). Ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish, ularning mental leksikon doirasidagi o‘rnini, ijtimoiy-kognitiv rolini va semantik tarmoqlanishini anglashda muhim vositadir. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar lingvistik, psixolingvistik hamda kompyuter lingvistikasining kesishgan nuqtasida joylashadi.

a) Mental leksikon va semantik tuzilma. Mental leksikon tushunchasi inson ongida so‘zlarning qanday tartiblanganini va ular qanday semantik aloqalar orqali bog‘langanini ifodalaydi. Kovács va boshqalar (2021) so‘zlar o‘rtasidagi semantik tarmoq aloqalarini aniqlash orqali leksik tizimdagi “jamoalar”ni (clusters) ochib bergan, bu esa ruhiy holatga oid birliklarning semantik guruhlarida qanday birlashishini aniqlashga asos bo‘ladi. Xuddi shunday, Agustín-Llach va Rubio (2024) tarmoq tuzilmalar asosida so‘zlarni izlash va chaqirish (retrieval) jarayonini tahlil qilib, emotsional so‘zlarning mental leksikonda qanday joylashganini ko‘rsatgan.

Belov (2020) esa mental leksikonning shakllanishi va funksional ishlatilishini semantik bog‘lanishlar orqali tavsiflaydi. Bu yondashuv, xususan, ruhiy holatlar semantikasini tasniflashda kognitiv asosni mustahkamlaydi. Baxtiyarov (2021) tomonidan o‘zbek va ingliz tillarida semantik o‘zgarishlarning kognitiv xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, ruhiy holatni ifodalovchi birliklarning semantik evolyutsiyasini ko‘rsatadi.

b) Frazeologik birliklar va ruhiy holat semantikasi. Frazeologik birliklar ruhiy kechinmalarni ifodalashda ko‘p hollarda asosiy vosita bo‘ladi. Fokina (2025) ingliz tilidagi head, mind, brain komponentlari ishtirokidagi frazeologizmlarni aksiyologik tahlil qilib, ularning ijobiy yoki salbiy baholashdagi rolini ko‘rsatadi. Bu, ruhiy holat ifodasining madaniy va semantik qamrovini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek va tojik tillarida ruhiy holatni bildiruvchi frazeologik birliklar semantik maydon asosida o‘rganilgan (Muxaybinovna, 2020). Ushbu tadqiqotlar ruhiy holatga oid iboralarning madaniy semantik tarkibini ochib beradi, ayniqsa O‘zbek WordNet kabi tizimlar uchun frazeologik birliklarni sinsetlarga kiritish uchun zarur bo‘ladi.

Dmitrieva (2015) esa kross-lingvistik yondashuv orqali ingliz, rus, fransuz va italyan tillaridagi emotsional so‘zlarning semantik tuzilmasini solishtirib, turli tillarda ruhiy holatlarni nomlashdagi umumiylik va farqlarni ochib beradi.

c) WordNet va semantik tarmoq modellari. WordNet – til birliklarini semantik aloqalar asosida tarmoq shaklida tashkil etuvchi model bo‘lib, emotsional birliklarni guruhlariga ajratish va ularni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Pease va Fellbaum (2010) WordNet va SUMO tizimlarini birlashtirish

orqali tushunchalararo semantik aloqalarni chuqurlashtirgan. Piasecki va boshqalar (2008) sinsetlar emas, balki leksik birliklarning WordNet’ning asosiy komponenti bo‘lishi kerakligini ilgari surgan – bu ayniqsa ko‘p so‘zli iboralar uchun dolzarb.

Maziarz va boshqalar (2022) ko‘p so‘zli birliklarning WordNet’ga kiritilishi va ularni avtomatik ajratish metodikasini ishlab chiqqan. Ushbu tadqiqot O‘zbek WordNet’da ruhiy holatga oid frazeologizmlarni tarmoqlash uchun zarur uslubiy asos bo‘la oladi.

Shuningdek, Zaško-Zielińska va hamkorlari (2015) tomonidan tuzilgan plWordNet asosidagi emotsional leksikon – semantik tarmoqlanish bilan emotsional bahoni birlashtiruvchi resurs bo‘lib, O‘zbek WordNet uchun foydali modellashtirish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi adabiyotlar ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoqlanishini o‘rganishda ko‘p qirrali yondashuvlarni taklif qiladi: kognitiv, frazeologik, psixolingvistik hamda tarmoq modeliga asoslangan strukturaviy yondashuvlar. WordNet va O‘zbek WordNet tizimlari ushbu leksik birliklarni toifalash, bog‘lash va semantik jihatdan tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu asosda, keyingi bo‘limda ushbu birliklarning tanlanishi, semantik munosabatlar orqali tarmoqlanishi va tasnifi amaliy misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy leksik-semantik tahlil, korpus lingvistikasi va tarmoqli model (network model) yondashuvlariga tayangan holda belgilandi. Maqsadga erishish uchun sifatli tadqiqot metodlari, ya’ni deskriptiv-lingvistik, komponential-semantik tahlil hamda kompyuter lingvistikasi asosidagi tarmoq modellasuvi uslublaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida ingliz tilidagi WordNet tizimi va o‘zbek tiliga moslashtirilgan eksperimental WordNet (O‘zbek WordNet) resursi tanlab olindi.

Tadqiqot materiali va tanlov mezonlari. Tadqiqotda ishlatilgan ma’lumotlar bazasi quyidagilardan iborat:

Princeton WordNet 3.0: rasmiy elektron formatda mavjud bo‘lgan leksik-semantik tarmoq.

O‘zbek WordNet: O‘zbekiston Milliy universiteti va boshqa ilmiy markazlar tomonidan ishlab chiqilgan sinovdagi elektron resurs.

Frazeologik birliklar korpusi: Muxaybinovna (2020), Fokina (2025) va boshqa tadqiqotlar asosida tuzilgan frazeologik birliklar ro‘yxati.

Leksik birliklar tanlanishida quyidagi mezonlar asosiy omil sifatida belgilandi:

Birlikning semantik yuklamasi ruhiy/emotsional holat bilan bog‘liq bo‘lishi (masalan: quvonch, g‘am, g‘azab, xavotir, h.k.).

WordNet tizimida mavjud bo‘lishi yoki sinsetlar orqali boshqa birliklar bilan semantik aloqada turishi.

Ko‘p so‘zli ibora (frazeologizmlar) shaklida bo‘lishi va kontekstda emotsional ma’no anglatishi.

Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot quyidagi ketma-ket bosqichlar asosida amalga oshirildi:

Semantik birliklarni aniqlash: WordNet va O‘zbek WordNet tizimlaridan “emotion”, “mental state”, “mood”, “affect” kabi sinsetlar asosida ruhiy holatga oid leksik birliklar ajratib olindi (Pease & Fellbaum, 2010).

Klassifikatsiya va guruhlash: Ajratilgan birliklar asosiy semantik guruhlariga – quvonch, qayg‘u, g‘azab, umid, xavotir kabi – tasniflandi. Bu bosqichda Dmitrieva (2015) va Shutova & Mudrynych (2022) tomonidan taklif etilgan semantik tavsiflar asos bo‘lib xizmat qildi.

Semantik tarmoq modellashtiruvchi: Tanlangan birliklar sinsetlar orqali bog‘lanib, hypernymy, hyponymy, antonymy kabi semantik munosabatlar asosida graf (semantik tarmoq) shaklida vizualizatsiya qilindi (Kovács et al., 2021). Tarmoq tuzilmalari Gephi dasturi orqali modellashtirildi.

Frazeologik birliklarni joylashtirish: Muxaybinovna (2020) va Fokina (2025) asarlaridagi frazeologizmlar tanlab olinib, mavjud WordNet sinsetlariga joylashtirildi va semantik integratsiya darajasi tahlil qilindi. Bu bosqichda ko‘p so‘zli birliklar bo‘yicha Maziarz et al. (2022) yondashuvlaridan foydalanildi.

Inglizcha va o‘zbekcha tarmoqlarning taqqoslamasi: Har ikki tildagi tarmoqlar struktura, sinset zichligi, antonimik bog‘lanishlar va frazeologik birliklar integratsiyasi bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil vositalari. Tahlil jarayonida quyidagi texnik va dasturiy vositalardan foydalanildi:

WordNet: QueryData (Perl moduli) va NLTK (Python kutubxonasi) – sinsetlar, glosslar va semantik aloqalarni ajratib olishda.

Gephi 0.9.2 – semantik graflarni vizualizatsiya qilish va tarmoq xossalarini aniqlashda.

Google Sheets / Microsoft Excel – birliklarni kodlash, guruhlash va statistik tahlil qilishda.

Tadqiqot dizayni va yondashuvi. Tadqiqot kвалитativ (sifatli) yondashuvga asoslangan bo‘lib, yo‘nalgan tanlovli (purposive sampling) metod orqali tahlil uchun emotsional mazmunga ega leksik birliklar tanlab olindi. Maqsadli yondashuv bu so‘zlarning semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni WordNet tizimidagi o‘rnini aniqlash hamda turli tillardagi o‘xshashlik va tafovutlarni ko‘rsatish imkonini berdi.

Tadqiqot Natijalari. Mazkur tadqiqot doirasida WordNet va O‘zbek WordNet tizimlarida ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning miqdoriy tarkibi, semantik bog‘lanish turlari hamda ko‘p so‘zli ifodalarning (frazeologizmlarning) sinsetlar bilan o‘zaro aloqadorligi o‘rganildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, quyidagi asosiy xulosalar ishlab chiqildi.

Ruhiy holatni ifodalovchi birliklarning toifaviy taqsimoti. Dastlabki natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi WordNet tizimida ruhiy holat bilan bog‘liq leksik birliklar miqdori O‘zbek WordNet’ga nisbatan sezilarli darajada ko‘proqdir. Jumladan, quvonch semantik toifasiga oid 42 ta birlik WordNet’da qayd etilgan bo‘lsa, O‘zbek WordNet’da bu ko‘rsatkich 31 tani tashkil etadi (Jadval 1). Xuddi shunday, qayg‘u, g‘azab, xavotir va umid kabi emotsional toifalar bo‘yicha ham o‘xshash tafovutlar kuzatiladi.

Ruhiy holatga oid birliklar soni

Jadval 1.

Ruhiy holat toifalari	WordNet (Ingliz)	O‘zbek WordNet
Quvonch	42	31
Qayg‘u	38	27
G‘azab	36	20
Xavotir	29	18
Umid	25	14

Bu tafovutlarni bir tomondan WordNet’ning til korpusi va tarixiy rivojlanish tajribasining kengligi bilan, ikkinchi tomondan esa O‘zbek WordNet’ning hali to‘liq shakllanmaganligidan kelib chiqish mumkin. Baxtiyarov (2021) ushbu holatni semantik birliklarning til va madaniyatlar kesimida kognitiv jihatdan farqlanishi bilan izohlaydi.

Semantik bog‘lanishlar tahlili. Sinsetlar o‘rtasidagi semantik aloqalar tarmoq tuzilmasining samarali ishlashida muhim o‘rin tutadi. Olingan natijalarga ko‘ra, inglizcha WordNet’da ruhiy holatga oid birliklar o‘rtasida hypernymy (65 ta) va hyponymy (58 ta) aloqalari yetakchi o‘rinni egallaydi, bu esa ierarxik tuzilmaning yaxshi shakllanganligini ko‘rsatadi (Jadval 2). O‘zbek

WordNet’da ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 48 va 39 tani tashkil etadi, ya’ni semantik chuqurlik nisbatan cheklangan.

Semantik aloqalar soni bo‘yicha taqqoslash

Jadval 2.

Semantik aloqa turi	WordNet (Ingliz)	O‘zbek WordNet
Hypernymy	65	48
Hyponymy	58	39
Antonymy	45	27
Synonymy	50	31
Meronymy	17	9

Antonymy va synonymy aloqalari ham xuddi shunday farq qiladi. WordNet’da “sad” va “happy” kabi antonim birliklar keng ijtimoiy va emotsional kontekstdagi misollar bilan boyitilgan (Fokina, 2025), bu esa ular asosida yaratilgan tarmoqning psixolingvistik qamrovini kuchaytiradi. Pease & Fellbaum (2010) ta’kidlaganidek, sinsetlararo to‘liq semantik bog‘lanish mavjud bo‘lmasa, tarmoq modelining semantik uzviyligi zaiflashadi.

Frazeologik birliklarning tizimdagi o‘rni. Tadqiqotning alohida e’tibor qaratilgan jihatlaridan biri – ruhiy holatlarni ifodalovchi ko‘p so‘zli iboralarning WordNet tizimiga qanday integratsiyalashganini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Muxaybinovna (2020) tomonidan o‘rganilgan o‘zbek tilidagi “ko‘ngli to‘lmoq”, “ichiga yutmoq” kabi iboralar O‘zbek WordNet’da mustaqil birliklar sifatida mavjud bo‘lsa-da, ular sinsetlar bilan to‘liq integratsiyalashmagan.

Maziarz, Rudnicka va Grabowski (2022) o‘z tadqiqotlarida ko‘p so‘zli birliklarni WordNet’ga avtomatik aniqlash orqali kiritish metodikasini ishlab chiqqan bo‘lib, bu yondashuv O‘zbek WordNet’da frazeologik birliklarni chuqur semantik tarmoq tarkibiga kiritish uchun samarali model bo‘la oladi. Shu bilan birga, Dmitrieva (2015) tomonidan keltirilgan kross-lingvistik semantik tahlillar frazeologik birliklarning madaniy semantik yuklamasi borligini va ular til xususiyatlariga bog‘liq ravishda farq qilishini ko‘rsatadi.

Emotsional baholash va aksiyologik semantika. Frazeologik birliklarning emotsional va baholovchi xususiyatlari tarmoq modellarida alohida qayd etilishi kerak. WordNet tizimida bunday aksiyologik semantikani aniq belgilash mexanizmi mavjud emas, biroq Zaško-Zielińska, Piasecki va Szpakowicz (2015) tomonidan ishlab chiqilgan plWordNet-based Sentiment Lexicon modeli bu boradagi yetishmovchilikni bartaraf etish uchun asos bo‘la oladi. O‘zbek WordNet’da ushbu yondashuv joriy etilsa, leksik birliklar nafaqat ma’nodoshlik, balki hissiy bahosi bo‘yicha ham tarmoqda joylashgan bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, WordNet tizimi ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoq shaklidagi ifodalanishida samarali model bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek WordNet’da bu yo‘nalishda hali to‘ldirilishi kerak bo‘lgan bo‘shliqlar mavjud, xususan, semantik aloqalar soni, frazeologik birliklarning integratsiyasi va emotsional baholash tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Bularni to‘ldirish orqali o‘zbek tilidagi semantik tarmoqlanish yanada uzviy va funksional bo‘lishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqotda ruhiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tarmoqlanishi ingliz tilidagi WordNet va o‘zbek tiliga moslashtirilgan O‘zbek WordNet tizimlari asosida qiyosiy o‘rganildi. Tahlil natijalari mazkur ikki leksik-semantik modelning tarkibiy

tuzilmasi, semantik aloqalari, va emotsional mazmundagi frazeologik birliklarni tasniflashdagi imkoniyatlari borasida muhim ilmiy xulosalarga olib keldi.

Avvalo, WordNet tizimi emotsional birliklarni keng qamrovli semantik aloqalar orqali sinsetlar ichida va ular o‘rtasida to‘g‘ri va chuqur ierarxiyada joylashtira olgan. Bu esa, ruhiy holatlarni ifodalovchi birliklar o‘rtasidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlarni samarali tahlil qilishga imkon beradi (Pease & Fellbaum, 2010).

O‘zbek WordNet tizimida esa bu imkoniyatlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, leksik birliklarning miqdoriy jihatdan yetarli emasligi, ayniqsa frazeologik birliklarning tarmoqqa integratsiyalanmaganligi kuzatildi (Muxaybinovna, 2020)

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, WordNet tizimi ruhiy holatlarni ifodalovchi birliklarni nafaqat sinonimiya va antonimiya orqali, balki hypernymy/hyponymy kabi ierarxik bog‘lanishlar orqali ham tarmoqlay oladi. O‘zbek WordNet’da esa ushbu semantik aloqalar son jihatidan kamroq va strukturaviy jihatdan kamroq barqaror bo‘lib, bu tizimning chuqur semantik ishlanmasini cheklab qo‘ymoqda (Baxtiyarov, 2021)

Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlanishicha, WordNet va O‘zbek WordNet tizimlarida ruhiy holatga oid birliklarning emotsional-baholovchi komponentlari (masalan, ijobiy, salbiy yoki neytral yuklama) qayd etilmagan. Bu esa, til birliklarining aksiologik xususiyatlarini tahlil qilishda muayyan cheklovlar yuzaga keltiradi. Zaško-Zielińska va boshqalar (2015) tomonidan plWordNet’da joriy etilgan sentiment-annotatsiya modeli O‘zbek WordNet’ga ham tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan innovatsion yechim sifatida baholanadi.

Tavsiyalar. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

O‘zbek WordNet tizimini boyitish: Ruhiy/emotsional holatga oid birliklar sonini ko‘paytirish, ular orasidagi semantik aloqalarni (hypernymy, hyponymy, antonymy, synonymy) kengaytirish zarur. Bu borada xalqaro WordNet tajribalari, ayniqsa Princeton WordNet modeli asos qilib olinishi mumkin.

Frazeologik birliklarni integratsiya qilish: O‘zbek tilidagi emotsional mazmunga ega iboralar (masalan, “ichiga yutmoq”, “ko‘ngli to‘lmoq”) tizimli tarzda sinsetlarga bog‘lanishi lozim. Maziarz va boshqalar (2022) tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p so‘zli birliklarni tanib olish algoritmlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Sentiment annotatsiya tizimini ishlab chiqish: Har bir leksik birligining aksiologik yuklamasi (ijobiy, salbiy, neytral) WordNet strukturasi doirasida belgilanishi lozim. Bu tizim NLP (natural language processing), masalan, matndagi emotsiyani aniqlash, avtomatik tarjima va til bilan bog‘liq psixologik tahlillarda keng qo‘llanilishi mumkin.

Kross-lingvistik solishtirma tadqiqotlar olib borish: Ruhiy holatni ifodalovchi birliklarning boshqa tillardagi WordNet tarmoqlari bilan o‘zaro mosligini tahlil qilish, universal semantik yadrolarni aniqlash va ularni O‘zbek WordNet’ga implementatsiya qilish lozim.

Lingvist va dasturchilar hamkorligini kuchaytirish: WordNet’ning texnik va semantik tarkibini boyitish uchun tilshunoslar va dasturiy ta‘minot ishlab chiquvchilari o‘rtasida doimiy ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu o‘z navbatida O‘zbek WordNet’ning sifat va funktsionalligini oshiradi.

